

## SHAXSIY RIVOJLANISHIDA “TIME MANAGEMENT”NING O‘RNI

To‘g‘onboyeva Ziyodaxon

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
3-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada odat tusiga aylanib borayotgan “Time-management”ning yoshlar shaxsiy rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati hamda foydali jihatlari xususida fikr-mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** time menejment, madaniyat, bozor iqtisodiyoti, ehtiyoj, menejer, muassasa, ishlab chiqarish, tijorat.

### ABSTRACT

In this article, we will try to find an answer to the question of the place of “Time-management”, which is becoming a habit, in the personal development of young people, and whether it is harmful or beneficial for people.

**Key words:** time management, culture, market economy, need, manager, institution, production, commerce.

Biz doimiy band bo‘lgan davrda yashayapmiz. O‘qish, ish, uy-ro‘zg‘or, bola-chaqa deb hayotimiz g‘izillab o‘tib ketganini bilmay qolamiz. Hayotimizni to‘g‘ri va mazmunli o‘tkazish hammamizning o‘zimizga bog‘liq. “Vaqting ketdi – naqding ketdi” degan maqol biz o‘zbeklar uchun begona emas. Butun dunyoda ham shunga o‘xshash iboralar talaygina. Inglizlarda: “Time is money”, ruslarda: “Время – деньги” va boshqalar. Iqtisodchilar tomonidan bashorat qilingan dam olish onlari yaqin orada kelmasligi aniq, ammo, afsuski, ishsizlar uchun bashorat qilingan davr allaqachon boshlanib bo‘lgan. Dunyo iqtisodchilari jamiyatdagi odamlarni shartli ravishda ikkiga bo‘lishadi:

–puli bor, lekin undan zavqlanishga vaqti yo‘qlar;

– vaqti yetarli, ammo puli yo‘qlar.

“Time-management” odamlar orasida ommalashishining sababi: Ular o‘z vaqtlarini nafaqat ish uchun, balki sevimli mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish va dam olish uchun yetrali darajada vaqt ajratish maqsadida ushbu usuldan foydalanadilar. Aynan shuning uchun ham “Time-management” bugungi kun odamlari orasida ancha ommalashgan. Hozirda zamonaviy texnologiyalarda foydalanish vaqtimizni ancha tejaydi. Men hozirda o‘zimga qo‘yilgan kunlik topshiriqlarimni yon daftarchasiga

emas balki, internetda mashhur bo‘lgan “Notion” platformasiga joylab boraman. Notion nima bu? Bu o‘zimiz uchun elektron kundalik desak ham bo‘ladi. Men quyidagi ishlarimni doimo ushbu dasturga kiritib kuzatib boraman:

- Kunlik topshiriqlar
- Uzoq vaqt oladigan maqsadlar
- Pul hisob-kitobi
- Sayohatlar

Blogger Mayo Oshin o‘zining Medium’dagi ustunchasida nima uchun taym-menejment vaqtni befoyda sarflash ekanini tushuntirib berdi. Samaraliroq ishlash uchun quvvatni aql bilan yo‘naltirish kerakligini tushuntirdi. Uzoq va yuqori samaradorlikning siri vaqtni boshqarish va qattiq ishlashda emas, o‘zingizni, aynan quvvatingizni boshqarishda. **Taym-menejment tizimi odamni ayab o‘tirmaydi**. U mashina uchun a‘lo darajadagi tizim, ammo odam uchun emas. U quvvatimiz darajasini hisobga olmaydi. Ayonki, kunning turli qismida ish sifatimiz ham har xil. Bu tizim odamlarga xos bo‘lgan mazkur hissiy, aqliy va quvvat omillarini hisobga olmaydi.

Muvaffaqiyatli kishilar vaqtni boshqarmaydilar, ular odatda quvvat darajasi yuqori bo‘lganida faol harakat qilishadi va shu yo‘l bilan doimiylik ustida ishlaydilar. Samaradorligingizga hissa qo‘shadigan shaxsiy kundalik odatingizni o‘ylab toping. Muvaffaqiyatli kishilar vaqtni boshqarmaydilar, ular odatda quvvat darajasi yuqori bo‘lganida faol harakat qilishadi va shu yo‘l bilan doimiylik ustida ishlaydilar. Samaradorligingizga hissa qo‘shadigan shaxsiy kundalik odatingizni o‘ylab toping. **Taym-menejment xavotir uyg‘otib, bizni baxtsiz qiladi** Bu tizim odam uchun real bo‘lmagan samaradorlik va mukammallikning o‘ta yuqori standartini ilgari suradi. Ko‘pincha o‘zimizni vazifalarni bajarmaganimiz, hordiq chiqarayotganimiz uchun ayblaymiz. Qanchalik qattiq ishlamaylik, yana ko‘p ishlar qolib ketadi. Xavotir aybdorlik hissini oshiradi. Shuning uchun anchagacha uxlamay, ishlar ro‘yxati haqida o‘ylaymiz. Dam olish va vaqtimizni do‘stlar davrasida mazza qilib o‘tkazish o‘rniga xavotirga tushamiz. **Yechim: doimiy hordiqni rejalashtiring**. Hordiq va qayta quvvatlanish samarali ishlashingizda yordam beradi. Agar dam olish uchun vaqt ajratishni boshlasangiz, unumdorlik darajasidagi o‘zgarishlarga o‘zingiz guvoh bo‘lasiz. Qimmatli vaqtimizni rejalashtirish, o‘qish va taym-menejmentga sarflaymiz. Harakat qilish o‘rniga kunimizni rejalashtiramiz xolos. Shu yo‘l bilan biror narsaga erishdik, deya o‘zimizni aldaymiz. Gap shundaki, taym-menejment – vaqtni besamar ketkazish. Biz ko‘pincha bajarishni istagan ishlarga ulgurmaymiz. Vazifalarni haqiqatan ham amalga oshirish muhimroq. **Yechim: quvvatingiz darajasi yuqori bo‘lganida ko‘nikmalarni ishlab chiqing va ularni amalga oshiring**.

"Vaqt - bu pul" naqlini shior qilganlar vaqtni qadrlaydiganlar sirasiga kiradimi? Balki vaqtning qadrini puldan yuqori qo'ygan to'g'ridir? Vaqtga tabiiy ravishda ega bo'lganimiz, pulni esa mehnat qilib topganimizga qaramay, vaqt - bu umr, hayot. Bugun kam pul topsangiz, ertaga ko'proq ishlab moliyaviy muvozanatni tiklashingiz mumkin. Lekin bizga har kuni bir xil va o'zgarmas miqdorda vaqt beriladi. Uni mulk deb qabul qilish va muhofazalash o'z zimmamizda. "Quyoshning har botishida bir parcha kamayishing bor", deganlaridek vaqt bizning borligimizni aks ettirishi jihatidan puldan ko'ra bahosi yuqori, yanada to'g'rirog'i - bebahodir. Buni anglaganimizning o'ziyoq vaqt auramizni mustahkamlaydi va onlarimizga baraka kiritadi.

"Vaqt o'tib ketdi". Bu noto'g'ri gap. Vaqt joyida turadi, biz o'tamiz. Vaqt kimning ongida suv, oqar daryo tasavvurini shakllantirsa, u uchun soat millari shiddat ila harakatlanadi. Ha, faqat u uchun. Vaqt ne'matiga egaligidan shukrda bo'lgan, uni to'g'ri taqsimlay olishiga ishongan va shunga qarab harakat qilgan odam ulgurmaslik muammosidan xolidir.

Vaqt bilan muomala qilish shu darajada nozik san'at ekanligidan taym-menejment ilmi bilan shug'ullanish ommalashdi, to'g'ri rejalashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Aslida qisqa fursat ichida ko'p ishni bitirish, rejalarni amalga oshirish iloji yo'q narsa emas. Agar vaqtga nisbatan xavotirni yo'qota olsangiz, bunga osongina erishasiz.

Vaqtgingiz yetmayotgani, atrofingizda vaqtgingizni oladigan odamlar borligidan achchiqlanganingiz sari ulgurmaslik, kechikish, ertaga qoldirish kabi holatlarga ro'baro kelaverasiz. Vaqt olami nekbin farazlarni sevadi, xavotirli bashoratlardan esa qochadi.

Vaqtimiz bor, vaqtimiz ko'p. To'g'ri, u bizni kutib turmaydi, lekin teng yurishi mumkin, bunga erishish mumkin va jo'ndir. Vaqtga nisbatan tasavvurlaringizni tahrirlang - shu xolos!

Ko'pincha taym-menejment odamning samaradorligiga hissa qo'shadigan asosiy omillarni hisobga olmaydi. Biz - kuniga 24 soat ideal ishlashi mumkin bo'lgan mashina yoki robot emasmiz. Hislarimiz, quvvatimiz va irodamiz bu- sikl.

Taym-menejmentga diqqatni qaratish o'rniga muhim ishlarni kunning eng unumli qismiga rejalashtiring. Dam olishni unutmang. Amal qiladigan odatlaringizni shakllantiring. Siz vaqtni boshqara olmaysiz, biroq o'zingizni boshqarishingiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Fayziyev T. “San’at menejmenti va marketingi”. Fanidan o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent 2021. 325 b
2. Qarang: Xolmo‘minov M. “Madaniyat va san’at sohasi faoliyatini tashkil etish hamda boshqarish” O‘UM. Toshkent 2021. 328-b
3. Bazarova F. Menejment. O‘UM. Toshkent – 2018. TMI. 465-bet
4. Ҳайдаров А. Ижодий фаолиятни режалаштириш ва бошқариш – Тошкент – 2019. 197-б.
5. MY Tirkashev, «THE ROLE OF SMALL SCALE BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF MARKET ECONOMY», МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Моя профессиональная карьера", 34, 2022, 97-102 с.;
6. Djurakulovich Ziyadullaev Makhmudjon. (2022). YESTERDAY’S, TODAY’S AND FUTURE PENSION REFORMS IN UZBEKISTAN. Conference Zone, 119–121.